# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
# SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

## B U Y R U Q

**2023-yil "11" dekabr** **№ 428-ij** **Samarqand sh.**

**Universitet talabalarining qishki ta’til davrini mazmunli o‘tkazish maqsadida ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar doirasida onlayn olimpiada tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari talaba va o‘quvchilarining qishki ta’tilini tashkil etish to‘g‘risida"gi 560-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 24-noyabrdagi 507-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, universitetda tahsil olayotgan talabalarni qishki ta’tilini mazmunli tashkil etish, talabalarining o‘z bilimlarini, iqtidorlarini namoyon etish va rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratish, talabalarni Xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkaziladigan fan olimpiadalariga manzilli tayyorlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabalari o‘rtasida barcha bakalavr ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar doirasida onlayn ravishda 2023-yil 25-dekabrdan 2024-yil 7-yanvargacha o‘tkazilsin.

2. Onlayn tarzda tashkil etiladigan fan olimpiadasini o‘tkazish jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Institut direktorlari, fakultet dekanlari, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘yicha mas’ullar va olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha mas’ullarga:

olimpiadani saralash bosqichini onlayn ravishda tashkil qilish, adolatli va xolis o‘tkazish;

ta’lim yo‘nalishlari (fanlar) bo‘yicha maxsus dasturlar va sinov turlari bo‘yicha testlar bazasini shakllantirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va 2023-yil 15-dekabrga qadar olimpiada.samdu.uz elektron platformasiga joylashtirish.

4. Olimpiada sinovlarida yuqori ball to‘plagan talabalarni Respublika va Xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan olimpiada sinovlariga tayyorlash bo‘yicha institut hamda fakultetlarda alohida mashg‘ulotlar tashkil qilinsin.

*Buyurtma № ___. Adadi 200 nusxa*

5. Olimpiada sinovlarida 1,2,3-o‘rinni egallagan talabalarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor I.Raxmanov zimmasiga yuklatilsin.

6. Olimpiada natijalari fakultetlarda tahlil qilinsin va tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilsin.

7. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor H.Xushvaqtov zimmasiga yuklatilsin.

**Asos**: ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari **Sh.Xoliqulov** tayyorlagan buyruq loyihasi, moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor **I.Raxmanov**, reja-moliya bo‘limi boshlig‘i **J.Norqulov**, katta yuriskonsult **A.Usmanov** roziligi, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **H.Xushvaqtovning** munosabat belgisi.

**Rektor** **R.Xalmuradov**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023-yil 11-dekabrdagi 428-ij sonli buyrug‘iga 1-ilova**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabalar onlayn fan olimpiadasini o‘tkazish jadvali**

| T/r | Fan nomi | O‘tkazilish vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tarix (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 27-dekabr |
| 2 | Ekologiya (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 27-dekabr |
| 3 | Fizika (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 28-dekabr |
| 5 | Kimyo va kimyoviy texnologiyalar (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 28-dekabr |
| 6 | Informatika va axborot texnologiyalari (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 28-dekabr |
| 7 | Marketing (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 29-dekabr |
| 8 | Kimyo (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2023-yil 29-dekabr |
| 9 | Psixologiya (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 2-yanvar |
| 10 | Pedagogika (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 2-yanvar |
| 11 | Iqtisodiyot nazariyasi (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 2-yanvar |
| 12 | O‘zbek tili va adabiyoti (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 3-yanvar |
| 13 | Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va amaliyoti (mutaxasislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 2-yanvar |
| 14 | Geografiya (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 3-yanvar |
| 15 | Matematika | 2024-yil 3-yanvar |
| 16 | Tojik tili va adabiyoti (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 3-yanvar |
| 17 | Rus tili va adabiyoti (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 3-yanvar |
| 18 | Tuproqshunoslik | 2024-yil 3-yanvar |
| 19 | Ingliz tili (umumkasbiy fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 3-yanvar |
| 20 | Buxgalteriya hisobi va audit (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 4-yanvar |
| 21 | Biologiya (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 4-yanvar |
| 22 | Dasturlash | 2024-yil 4-yanvar |
| 23 | Moliya va kredit (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 4-yanvar |
| 24 | Zoologiya (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 4-yanvar |
| 25 | Agronomiya | 2024-yil 4-yanvar |
| 26 | Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (umumkasbiy fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 5-yanvar |
| 27 | Menejment (mutaxassislik fanlari bo‘yicha) | 2024-yil 5-yanvar |
| 30 | Hayvonlar fiziologiyasi | 2024-yil 6-yanvar |